



## ICHKI ISHLAR ORGANLARINING SHAXSI NO'MALUM MURDALARNING SHAXSINI ANIQLASHDA HAMKORLIK, HAMDA MURDANING SHAXSINI ANIQLASH USULLARI

G'aniyev Farrux Taxirjanovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar  
profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi Toshkent, 100197,

O'zbekiston, e-mail: fargan77@bk.ru

[orcid.org/0009-0005-2423-050X](https://orcid.org/0009-0005-2423-050X)

Ganiyeva Gulandon Ibragimovna

Namangan davlat universitetining Psixologiya (faoliyat turlari  
bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Jumanov Sobit Abdurauf o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o'quv kursi 319-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14245343>

### ARTICLE INFO

Received: 19 th November 2024

Accepted: 20th November 2024

Published: 29th November 2024

### KEYWORDS

Shaxsi no'malum murda,  
DNK, Sud tibbiy ekspertiza,  
genetik tahlil, SLTD YUNODC,  
BMT ,DNA  
Genom ,identifikatsiya.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolaning yozilishidan asosiy maqsad bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jiddiy muammolardan biri bo'lib kelayotgan shaxsi no'malum murdalarning shaxsini aniqlashda hamkorlik qolaversa yuzaga kelayotgan muammolarga atroflicha to'xtalib o'tgan bo'lib amaliy faoliyatda ushbu jarayon qanday ro'y berayotganligi va ushbu holatlarni o'rganishdagi masalalar yoritib o'tilgan.*

### Kirish

Shaxsiy no'malum murdalarni aniqlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud organlari faoliyatida shaxsi no'malum murdaning topilishi jinoyat alomatlari mavjudmi agarda mavjud bo'ladigan bo'sa sodir etilgan qotilik jinoyatini issiq izida ochish, asosiy ustuvor vazifa bo'lib xizmat qiladi. shaxsi no'malum murdalarning shaxslarni aniqlanishda asososan, jismoniy yoki huquqiy nuqtai nazardan hamkorlik, metodologiya va texnologiyaga asoslanadi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan hamkorlikning ahamiyati, uning metodlari va bu jarayondagi muhim qadamlar haqida so'z yuritimiz.

### Shaxsi no'malum murdalarni shaxsini aniqlash:

**Shaxsi noma'lum murdalar deganda** bu identifikatsiyasi aniq bo'lmagan holda topilgan topilgan, ba'zan esa tanasining qisman yoki to'liq parchalanishi yonishi kuyishi va boshqa sabablarga ko'ra tanib bo'lmaydigan holatga kelgan murdalar hisoblanadi . Bunday holatda topilgan murdalarning shaxsini aniqlash dastlabki tarzda topilgan murda nima sababdan o'lganligi qotillik natijasida o'lganmi yoki boshqa holatdaligini aniqlash uchun birinchi navbatda shaxsini aniqlash muhim jarayon hisoblanadi. Ushbu faoliyatni amalga oshirish davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblangan ichki ishlar organlari uning sohaviy xizmatlari o'rtasida qolaversa tibbiyot organlari bilan hamkorlikni amalga oshirish judayam muhim hisoblanadi.

Shaxsi noma'lum murda topilganda birinchi navbatda uning shaxsini aniqlashda jinoyat alomatlari bo'lsa keyingi qidiruv harakatlarini amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligi judayam muhim rol o'ynaydi. Bunday holatda ishni nazorat qiluvchi organ bo'lgan ichki ishlar organ xodimlari murda topilgan joyda hodisa joyini o'rab olish hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish , murdani ko'zdan kechirish,

guvohlarni so'roq qilish , tegishli materialllarni to'plash kabi harakatlarni amalga oshirib shu bilan birga sud tibbiy ekspertizani amalga oshirish choralari ko'rish zarur. Ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari o'rtasida tergov ,tezkor qidiruv va huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari yuqoridagi masalalar bo'yicha asosiy mas'ul organlar hisoblanadi.

**Tergov ,va uning boshqarmalari o'rtasida hamkorlik.** Hodisa sodir bo'lgan joydagi o'tkaziladigan harakatlarga rahbar xodim hisoblanib hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish ,shuningdek murdani ko'zdan kechirish turli xildagi ekspertiza va boshqa jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan oldin amalga oshirilishi lozim bo'lgan tergov harakatlarini o'tkazadi. Alohida bo'lim xizmatlari hisoblangan kriminalistik bo'lim, bioximika va tibbiy ekspertiza bo'limlariga ekspertiza o'tkazish bo'yicha qo'ri chiqaradi. Agarda boshqa turli xildagi muammolar yuzaga kelaganda boshqa hududiy birliklardagi tergov organlari bilan hamkorlik qilishi mumkin. Murdaning identifikatsiy qilish imkoniyati bo'lmaydigan holda topilgan, yonib ketgan , uzoq vaqt suvda qolib ketgan ,qotillik natijasida o'ldirilib yerga ko'milgan va uzoq vaqtdan so'ng aniqlangan murdalarni shaxsini aniqlashda juda katta qiyinchiliklar mavjud bo'ladi .Dastlabki tarzda hodisa sodir bo'lgan joyda murdaning shaxsini aniqlash uchun hududiy tekshiruvlar amalga oshirilishi mumkin.

**Tezkor qidiruv xizmatlar** ushbu mavzudagi shaxsi no'malum murdalarning shaxsini aniqlashga mas'ul organ hisoblanadi. Ular tomonidan murda topilgan vaqtdan boshlab shaxsini aniqlash choralari ko'rilishi qidiruv harakatlarini amalga oshirishi ,shuningdek hodisa sodir bo'lgan joydagi topilgan murda ko'zdan kechirilishi natijasida qotillik natijasida o'ldirilganligi bo'yicha dalillar mavjud bo'ladigan bo'lsa yoki shunday tasmollar qilingan bo'lsa tezkor qidiruv harakatlari olib borilishi murdaning shaxsini aniqlash bilan birgalikda jinoyat sodir qilganlarni topish tutish bo'yicha tezkor qidiruv amalga oshiriladi . Hududdagi barcha tezkor xizmatlar ko'tarilishi boshqa hududdagi muassasalarga so'rovnomalar yuborishi, hodisa sodir bo'lgan hududdagi profilaktika inspektori bilan hamkorlikda surishtiruv harakatlari amalga oshirish, hududdagi shaxslardan so'rov tadbirlarini , bedarak yo'qolgan shaxslar ichidan qidiruv xarakterlari i, bedarak yo'qolgan shaxslar ro'yxatidan qidiruv tadbirlarini hududiy birliklar boshqa viloyat IIB TQX JQBlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi hamkorlikdagi asosiy faoliyat hisoblanadi.

**Ichki ishlar organlarida Huquqbuzarliklar profilaktikasi** inspektorlari tomonidan murda topilgan mamuriy hududda dastlabki surishtiruv harakatlari amalga oshirilishui zarur bo'lib ushbu faoliyat tezkor qidiruv xizmati xodimlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bunda profilaktika inspektorlari tomonidan mahalla o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda surishtiruv harakatlari qolaversa mahalla faollari bilan murdani tanish tanimaslik bilan bog'liq harakatlar amalga oshirilishi juda muhim holat hisoblanadi. Murda topilgan hududdagi profilaktika xizmati xodimlari hudud bo'yicha katta malumotlarga uning demografik malumotlari aholishi bo'yicha yetarli malumotlarga ega shaxs hisoblanib u tomonidan, mamuriy hududdagi muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar ,shuningdek yolg'iz yashaydigan fuqarolar ro'yxatidan murdaning shaxsini aniqlash bo'yicha tekshiruvlar o'tkazishi mumkin. Bu ham yetarlicha samarasini beradi. Hududdagi video kuzatuv kameralarini ko'tarish shuningdek murda topilgan joydagi yon atrofdagi fuqarolardan turli ma'lumotlar olishi mumkin.

**Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar** yordamida qidiruvni amalga oshirilishi shaxni aniqlashning ilg'or texnologiyasi hisoblanadi. Ya'ni genom orqali identifikatsiya zamonaviy tekshiruv usullaridan biri bo'lib Genomni identifikatsiya qilish orqali murdaning shaxsini aniqlash — bu forensik genetik tahlilning bir turi bo'lib, ko'pincha murda shaxsining identifikatsiyasini aniqlash yoki uning kimligini tasdiqlash uchun qo'llaniladi. Genetik tahlil, xususan, DNK (dezoksiribonuklein kislotasi) tahlili, odamlar o'rtasidagi individual farqlarni aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega. Bunday usul bilan murda yoki uning artrofidan DNK namunalari olish zarur, Bu jarayonda murda terisidan , sochidan suyak va hokazo namunalari olish orqali tekshiruvlar amalga oshirilishi mumkin. anatomiya va morfologiya bo'limi,

genetik ekspertiza biologik izlarni olish ,shuningdek xronolifg ekspertiza orqali o'lim vati va sharoitlarini aniqlashi bundan tashqari sud tibbiy gistologik bo'limlari tomonidan o'tkaziladigan ekspertizalar zamonaviy texnologik usullar sirasiga kirib ushbu usullar murdaning shaxsini aniqlashni osonlashtirib kelmoqda,shu bilan birga Xalqaro identifikatsiya Texnologiyalari va Metodologiyalar yordamida ID2010,AFiS avtomatlashtirilgan barmoq izini identifikatsiya qilish tizimi va DNK profillash kabi tizimlar orqali murdaning shaxsini aniqlash ustuvor samarali natijalar beradi.

**Hududlararo va Xalqaro hamkorlik .** Ushbu faoliyat yordamida Respublikaning turli mamuriy hududiy birliklaridagi ichki ishlar organlari bilan hamkorlikni amalga oshirish mumkin.SHuningdek ularga shaxsi no'malum murda haqida ma'lumotnomalar so'rovnomalar yuborish orqali aniqlash choralari ko'rilishi mumkin.Bunday tadbirlar asosan tezkor qidiruv xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki bugungi kunda xalqaro qidiruv interpol (xalqaro politsiya tashkiloti)orqali ma'lumot almashinish murdaning DNK, barmoqizlari va boshqa identifikatsiya ma'lumotlari jahon miqiyosidagi ma'lumotlar bazasiga kiritilishi mumkin.Interpolning SLTD(Stolen and Lost Travel Documents) yoki DNA (Database ) kabi ma'lumotlar bazalaridan ma'lumot olish boshqa davlatlarning identifikatsiya va tergov ishlari haqida ma'lumotlar olishi mumkin. Undan tashqari Birlashgan millatlar tashkilotining YUNODC (BMT ning Narkotiklar va Jinoyatchilik bo'yicha bosh idorasi) odam savdosi yoki migratsiya bilan bog'liq holatga aloqador bo'lsa ushbu tashkilot bilan qidiruv shaxsni aniqlash bo'yicha yordam hamkorlikni amalga oshirishimiz mumkin,undan tashqari Yevropa kengashi va shengen hududi Shengen ma'lumotlar ba'zasi Xalqaro Migratsiya tashkiloti (XMT tomonidan Migratsiya va identifikatsiya bo'yicha ko'mak ), Xalqaro Identifikatsiya Texnologiyalar va metodologiyalar va Bugungi kunda xalqaro hamkorlik xalqaro huquqiy meyoriy hujjatlar bilan mustahkamlangan shu bilan birga yaxshi yo'lga qo'yilgan.

**Xulosa:** Amaliy jarayon shuni ko'rsatadiki murdaning shaxsini aniqlashda , bugungi kunda jiddiy muammolar uchrab turmoqda .Ulardan biri hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi hisoblanib topilgan murdalarning aksariyat qismi qotillik natijasida o'ldirilgan shaxs holatlari ham ko'p kuzatilmoqda , bunday holat biz bilamizki O'zbekiston respublikasining amaldagi jinoyat kodeksining 97-moddasi qasddan odam o'ldirish deb nomlanib ijtimoiy xavfli jihatdan o'ta og'ir jinoyat hisoblanadi , shaxsi no'malum murda topilganda uning shaxsini anqilash murdaning ko'zdan kechirish jarayonida qotillik alomatlari mavjud bo'li murdaning tanasidagi izlar puichoq jarohatlari o'q jarohatlari yoki boshqa turdagi usul bilan o'ldirilib yuz qismini tanib bo'lmaydigan holatga kelishi to'liq jinoyat alomati mavjud ekanligidan dalolat berib tegishli murdani shaxsini aniqlash bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish shart bo'ladi murdaning shaxsini qancha tez fursatda aniqlanishi sodir etilgan jinoyatni issiq izida ochilishi jinoyatga oid izlarning yo'qolishini jinoyatchi shaxslarning qochib ketishini oldini olish bilan chambarchas bog'liq holat hisoblanib amaldagi jinoyat qonumchiligimizga bog'liq holda jazo muqarrarligi prinsipini ta'minlab agarda jinoyat alomatlari mavjud bo'lmagan taqdirda esa murdaning shaxsini aniqlab uning yaqinlariga bu haqida habar berish. bedarak yo'qolgan shaxslarni aniqlash bilan bog'liq holatlarni aniqlashga ham yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi IIV akademiyasi Sud tibbiyoti darslik
2. O'zbekiston respublikasi genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi to'g'risidagi qonuni.
3. Ганиев Ф. Ўғирлик жиноятларининг профилактикаси тушунчаси ва турларига оид айрим мулоҳазалар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 37-42.

4. Ғаниев, Ф. Т. (2023). ЎҒРИЛИК ЖИНОЯТИНИНГ ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ ВА ОЛДИНИ ОЛИШГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(12), 301-313.
5. Ғаниев, Фаррух. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИ ТОМОНИДАН ЎҒРИЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ." *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук* 2.12 (2022): 159-162.
6. Ғаниев, Ф. (2023). АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИ ҲАМДА МУҲОФАЗАСИ ТАЪМИНЛАНГАНИГА ҚАРАМАСДАН СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАР. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(1), 129-138.

